

TIL O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI

Safarova Safiya

Buxoro viloyati Vobkent tumani 3-son texnikumi

nemis tili o'qituvchisi

sonsoonju89@gmail.com

+998992826712

Annotatsiya; *Mazkur maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Interaktiv yondashuvlarni o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida interaktiv metodlarni qo'llashning afzalliklari va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Interaktiv metodlar, til o'qitish, kommunikativ yondashuv, Adolf Bohlen, metodi, mashqlar sestemasi, dinamika va statika mashqlar.*

Kirish.

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'rganishning ahamiyati keskin oshmoqda. Xalqaro aloqalar kengayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va global mehnat bozori talablari yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashni zarur qiladi. Shu bois umumta'lim maktablarida til o'qitish jarayoni sifat va samaradorlikni oshirishni talab etadi. An'anaviy metodlar, asosan, nazariy bilim berishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini to'liq shakllantira olmaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogika interaktiv yondashuvlarni afzal ko'radi. Interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, bilimlarni amalda qo'llashga va mustaqil fikrlashga undaydi.

Mazkur maqolada interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, ularning o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli hamda amaliy qo'llanilish usullari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Mamlakatimizda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1875-sonli hamda "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5117-sonli qarorlarining qabul qilinganligi hozirgi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, zamonaviy o'quv-

uslubiy materiallar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, chet tillarni o'rgatish hamda o'rganilgan bilim, ko'nikmalarni mustaqil ravishda amalda qo'llashga o'rgatish chet tili o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. Ushbu qarorlar ijrosi o'qituvchidan na faqat talabalarga dars berishni, balki talabalarining qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda fan bo'yicha o'quv-uslubiy materiallarni takomillashtirish, mavjud adabiyotlar asosida uslubiy qo'llanmalar yaratish lozimligiga e'tibor qaratishni talab qilmoqda.

Interaktiv metodlar — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta'lim usullari bo'lib, ularning asosiy vazifasi o'quvchilarning faolligini oshirish va bilimlarni mustahkamlashdir. Til o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish bir qator ijobiy natijalarni beradi. Ular quyidagilardir:

- Faollik va motivatsiyani oshirish:

Rolli o'yinlar, guruhli muhokamalar, debatlar va “Ideensammlung” usullari o'quvchilarni faol qatnashishga undaydi, darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Misol: Nemis tilida “Restaurant-Rollenspiel” (restoran rolli o'yini) usulida o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi: biri mijoz, ikkinchisi xizmat ko'rsatuvchi. O'quvchilar restoran vaziyatini sahnalashtiradi, menyu buyurtma qiladi, savollar beradi va javob oladi. Shu jarayon orqali o'quvchilar yangi so'zlarni eslab qoladi, dialog tuzadi va real muloqot ko'nikmasini rivojlantiradi.

- Nutqiy va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish:

- Nutqiy kompetensiya – o'quvchi tilning to'g'ri grammatik shakllari va lug'atidan foydalangan holda o'z fikrini ifodalaydi.

- Kommunikativ kompetensiya – o'quvchi suhbatdosh bilan interaktiv muloqot qiladi, fikr almashadi, savol-javoblarda qatnashadi, suhbatni davom ettirish va vaziyatni boshqarish qobiliyatini oshiradi.

Bu metod o'quvchiga tilni “hayotiy kontekstda” ishlatishga imkon beradi, shuningdek, o'z fikrini erkin va ishonch bilan ifodalashga yordam beradi.

- Jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish:

Guruhli faoliyatlar o'quvchilarga bir-birining fikrini tinglash, baholash va umumiy xulosaga kelish tajribasini beradi. Bu esa zamonaviy jamiyatda talab qilinadigan ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

- Mustaqil fikrlashni rivojlantirish:

Interaktiv metodlar o'quvchilarga o'z qarorlarini asoslash, muammoni tahlil qilish va yechim topish imkonini beradi. Biroq, interaktiv metodlarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab etadi. O'qituvchi darsni puxta rejalashtirishi, metodlarni o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga mos tanlashi va o'quvchilarning individual

xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Shu bilan birga olimlarimiz tomonidan ko'plab metodlar o'tkazilgan.

Misol: Adolf Bohlen (Adolf Bohlen) metodi. Nemislarga ingliz tili o'rgatishga oid tadqiqotlar muallifi A. Bohlen to'g'ri metodning "muloyim shakli" (eine gemilderte Form)ni asoslashga urinib ko'rgan. O'qitish maqsadlarini ilmiy tekshirar ekan, chet til o'rgatishda to'rtta vazifani belgilaydi: 1) amaliy egallash; 2) til orqali xalq ruhi bilan oshno bo'lish; 3) madaniyaviy o'rganish; 4) tarbiya olish. Bu prinsiplari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular asosan to'g'ri metodga muvofiq keladi: 1) eng murakkab leksik va grammatik hodisalar ona tili vositasida tushuntiriladi va nazorat qilinadi; 2) yangi material avval og'zaki o'rganiladi; 3) so'z kontekstda (jumalarda) o'zlashtiriladi; 4) grammatika induktiv (oldin til materiali nutqda, keyin qoida) o'rganiladi va h.k.

Metodist A. Bohlenning talablaridan muhimlari o'z dolzarbligini hozirgacha saqlab kelayotganlari mana bunday ifodalangan: haftalik dars soatlari sonini ko'paytirish, sinfda o'quvchilar miqdorini kamaytirish va muallimlarning til malakalarini oshirish uchun chet elga yuborib turish. A. Bohlen metodika tarixida birinchi bo'lib, chet til o'qitishning uch bosqichi — ibtidoiy, o'rta va yuqori bosqichlarini aniqlab, ularni asoslab berishga harakat qilgan.

Metodika tarixidagi turli yondashuvlar, xususan, A. Bohlenning bosqichli o'qitish tizimi amaliyotda aynan mana shu mashqlar sistemasi orqali namoyon bo'ladi, chunki darslikdagi har bir topshiriq (statika) o'quvchining nutqiy harakatiga (dinamika) aylanishi lozim.

Mashqlar sistemasi. Chet til o'rganishni mashqlar bajarishdan iborat jarayondir deyilsa, mubolag'a yoki xato bo'lmaydi. Bu — mashqning dinamika (harakat) tarafi. Uning statika (holat) jihati — darslikda o'quv materiali tarzida tashkil etilganligidadir.

- Statikadagi mashq deganda, chet til darsligida muayyan raqam yoki harf bilan belgilangan yoki maxsus ajratib ko'rsatilgan, ikki qismdan iborat, dars tarkibini tashkil etadigan o'quv-metodik kategoriya tushuniladi. Mashqning qismlari metodik adabiyotlarda „mashq talabi (sarlavhasi)“ va „mashq materiali“ deb yuritiladi. Mashq materiali darslikda yozilgan (harf, so'z, jumla, grafik matn) yoki o'quvchi nutqining mahsuli (tovush, so'z, jumla, og'zaki matn) bo'lishi mumkin.

- Dinamikadagi mashq — chet tilda o'quvchi bajaradigan, harf yozish yoki tovushni talaffuz etishdan tortib, to matnni idrok etib tushunish yoki o'z fikrini bimalol bayon etishgacha bo'lgan o'quv amalidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlar til o'qitish samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini kuchaytiradi, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi hamda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, interaktiv metodlardan samarali foydalanish o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik va metodik mahoratni talab etadi. Kelgusida ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali interaktiv metodlarning qo‘llanish ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10-dekabr 2012-yil PQ-1875-sonli “Chet tillarini o‘rganishni yanada takomillashtirish” qarori asosida tuzilgan qo‘llanmalar.
2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi.- T.: O‘qituvchi, 2012.
3. A. Bohlen. Methodik des neusprachlichen Unterrichts, 4 Aufl., Heidelbergr Quelle-Meyer, 1963 (1 Aufl. — 1930, Leipzig, Quelle-Meyer, II—1955, III—1958)